PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

2/2026

Bosh muharrir:
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o‘rinbosari)

Tahrir hay’ati:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Nurmanov Abdumannop
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o‘qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o‘zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan va unga O‘zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

© “Pedagogika” jurnali, 2026

PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODICAL JOURNAL

2/2026

CHIEF EDITOR
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

EDITORIAL BOARD:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Nurmanov Abdumannop
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

The founder: National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian English languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Kadirova Nilufar Mirkarim kizi, *O‘zMPU mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada katta yoshdagi bolalarda yetakchilik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *bolalar, pedagogik imkoniyat, etakchilik fazilatlarini shakllantirish, katta maktabgacha yoshdagi, bilim, mahorat, ko‘nikma.*

Аннотация. В статье раскрыты возможности формирования лидерских качеств у детей старшего дошкольного возраста.

Ключевые слова: *дети, педагогическая возможность, формирование лидерских качеств, старший дошкольный возраст, знание, умение, навык.*

Abstract. The article discloses the possibilities of forming leadership qualities in older preschool children.

Key words: *children, pedagogical opportunity, formation of leadership qualities, senior preschool age, knowledge, skill, skill.*

Kirish. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish muhim va ta’sirli jarayon bo‘lib, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini, o‘zini o‘zi boshqara olish qobiliyatlarini va jamoa ichida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Asosiy qism. Ilmiy manbalarda pedagogik imkoniyat tushunchasiga turlicha ta’riflar keltirilgan. Jumladan, V.A.Slastenin pedagogik imkoniyatni ta’lim jarayonining imkoniyatlari bilan bog‘lab izohlaydi «Pedagogik imkoniyat – bu ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsni shakllantirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar, usullar va vositalarning imkoniyatlar majmuasidir», – deb ta‘riflaydi. N.N.Azizxo‘jayeva esa, pedagogik imkoniyatni ta’lim texnologiyalari bilan bog‘laydi: «pedagogik imkoniyat – ta’lim jarayonida belgilangan maqsadlarga erishish uchun pedagogik texnologiyalar, metodlar va shakllar orqali yuzaga keladigan samarali ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlaridir», – deb ta’riflaydi [1]. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirishda ana shu pedagogik imkoniyatlarni aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Bu yosh davrida bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish uchun bir nechta muhim imkoniyatlar mavjud. Mazkur pedagogik imkoniyatlar 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

№	Pedagogik imkoniyatlar	Mazmuni
1	Shaxsning rivojlanishi	Liderlik sifatlari, masalan, o‘z fikrlarini izhor qilish, mas’uliyatni his qilish va boshqalarga o‘rnak bo‘lish qobiliyatlari rivojlanadi
2	Jamoa ishi	Liderlik sifatlarini shakllantirishda bola jamoada ishlashni o‘rganishlari muhim. Ularning bunday jamoa ishlari orqali o‘rganishlari, birgalikda maqsadlarga erishish va har bir a’zoga hurmat ko‘rsatish kabi ko‘nikmalarni oshirish mumkin
3	Muammoni yechish va qaror qabul qilish	Lider bo‘lish uchun muammolarni hal qilish va samarali qarorlar qabul qilish muhim. Maktabgacha yoshda bolalarga turli ijodiy va mantiqiy vazifalarni taqdim etish, ularni hal qilishga tayyorlash – ularning mustaqil va ishonchli bo‘lishlariga yordam beradi
4	Motivatsiya va ilhom berish	Liderlikda bolalarning boshqalarga ilhom berish va ularni maqsadlarga yo‘naltirish qobiliyati muhimdir. Bu maqsadda pedagoglar va ota-onalar bolalarga maqsadga intilish, ularni o‘zlariga ishonch hosil qilish va shijoatli bo‘lishga o‘rgatishlari kerak.
5	Sog‘lom raqobat va hamkorlik	Bolalarga hamkorlik va raqobatning ahamiyatini tushuntirish, ularning shunga mos ravishda ishlashlariga yordam beradi
6	Boshqalarga yordam berish	Bolalarga boshqalarga yordam berish, ularga g‘amxo‘rlik qilish va jamoa muvaffaqiyatiga hissa qo‘shish qobiliyatlari rivojlantiriladi
7	Rollar va mas’uliyatni his qilish	Bolalarga turli rollarni va mas’uliyatlarni taqsimlash, ularga liderlikni his qilish imkoniyatini yaratadi. Bu bolalarga jamoaga rahbarlik qilish, qarorlar qabul qilish va jamoani ergashtirishga erishishga imkon beradi

Shuningdek, bolalarning ijtimoiy munosabatlaridagi qulay shart-sharoitlar, ularga ishonch va qo‘llab-quvvatlash taqdim etgan muhitda liderlik sifatlari yaxshiroq rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri – bu ularning boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, jamoada ishlash, aloqa o‘rnatish va ijtimoiy rollarni to‘g‘ri anglash qobiliyatini shakllantirishdir. Liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda bolalarning ijtimoiy munosabatlarining ahamiyati katta.

Ijtimoiy rivojlanish – bola o‘z atrofidagi odamlar bilan munosabatlarini to‘g‘ri tashkil qilish, boshqalar bilan ishlash, ularga ta‘sir qilish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy rollarni to‘g‘ri anglash orqali rivojlanadi.

Jamoada ishlash – bolalar jamoada boshqalar bilan hamkorlik qilish, mas’uliyatni bo‘lishish, qarorlar qabul qilish va boshqalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatishni o‘rganishlari kerak. Liderlik qobiliyatlari emotsional intellekt va empatiyaga bog‘liq. Emotsional intellekt bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglashga yordam beradi. Lider bola boshqalarning holatini tushunish, ular bilan muvofiq ishlash va ularga yordam berish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Empatiya – bola boshqalarning his-tuyg‘ularini his qilish, ularga yordam berish va ularning muammolariga e’tibor qaratish qobiliyatini shakllantirish muhimdir. Empatiya bolalarda o‘zaro munosabatlarda ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ularning jamoadagi loyihalarda rahbarlik qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Liderlik qobiliyatlari bolaning mustaqillik va shaxsiy mas’uliyat hissini shakllantirishga bog‘liq. Bola o‘zini mustaqil va jamoadagi muhim shaxs sifatida sezishini o‘rganishi kerak. Uning qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘lishi va o‘z xulq-atvorini nazorat qilish qobiliyati, liderlik qobiliyatlarining shakllanishiga yordam beradi.

Mustaqillik – bola o‘z harakatlarini yoki qarorlarini mustaqil qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Mustaqillik bolalarda ishonchni shakllantiradi va ularga jamoadagi liderlik rolini bajarish imkonini yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirishda bir necha muhim pedagogik imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlar bolalarning ijtimoiy, emotsional va aqliy rivojlanishini yaxshilash, ularda liderlik va mustahkam jamoa o‘yinlarini shakllantirishga qaratilgan.

Quyida ularning asosiy yo‘nalishlari va pedagogik imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumot keltirilgan:

1. Ijtimoiy o‘yinlar va guruhlashgan faoliyatlar. Guruh o‘yinlari bolalarga jamoada ishlash, o‘zaro munosabatlar, boshqa bolalarga yordam berish va jamoa rahbarlik qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi.

2. Individual yondashuv va shaxsiy salohiyatni shakllantirish. Pedagog bolalarning har birini shaxsan tushunish, ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga asoslangan individual yondashuvni qo‘llab-quvvatlashi lozim.

3. Muloqot va ishonchni shakllantirish. Bolalar bilan muloqot qilish va ishonchni mustahkamlash, ularning ijobiy munosabatlarda bo‘lishini shakllantirish, liderlik sifatida ko‘riladi. Ushbu pedagogik imkoniyat muloqot orqali bolalarda o‘zaro hurmat va ishonchni o‘rnatishga xizmat qiladi.

4. Axloqiy qadriyatlar va mas’uliyatni shakllantirish. Bolalarga o‘z qarorlari va amallari uchun mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish, ularning jamoadagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

5. Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyati. Bolalarga har xil vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatish ularni mustaqil va mas’uliyatli odamlarga aylantiradi.

6. Emotsional yordam va ruhiy bosimga moslashuv. Pedagog bolalarga muammolar va holatlarga yondoshishda yordam berish, ularni hissiy barqarorlikka olib kelish kerak.

7. Vizual va multimedia vositalardan foydalanish. Multimedia vositalari (videofilmlar, animatsiyalar, interaktiv o‘yinlar) bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirishda psixologik-faoliyatli, ijtimoiy-interaktiv, individual-tarbiyaviy, pedagog-namunalilik va integrativ yondashuvlar asosiy ahamiyatga ega. Ularni amalga oshirish orqali bolalarda tashabbuskorlik, mustaqillik, jamoaviy ishlash va ijtimoiy mas‘uliyat qobiliyatlari rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish ularning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, jamoada o‘z o‘rnini topishi va mas’uliyatni his etishida muhim ahamiyatga ega. Bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali samarali amalga oshiriladi.

№	Pedagogik shart-sharoitlar	Mazmuni	Amalga oshirish usullari
1	Ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish	Bolalarning erkin fikr bildirishi, tashabbus ko‘rsatishi va jamoada faol ishtirok etishi uchun qulay muhit yaratish	Bolalar fikrini eshitish, ularni rag‘batlantirish, ijobiy emotsional muhit yaratish
2	O‘yin faoliyatini maqsadli tashkil etish	O‘yin jarayonida bolalarda yetakchilik, qaror qabul qilish va jamoani boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish	Rolli o‘yinlar, jamoaviy o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, rollarni taqsimlash
3	Hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayoni	Bolalarni birgalikda ishlash, muloqot qilish va jamoaviy qaror qabul qilishga o‘rgatish	Guruhli mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar, ijodiy topshiriqlar
4	Pedagogning shaxsiy namunasi	Pedagogning adolatli, rag‘batlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi munosabati orqali bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish	Bolalar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, mustaqil qaror qabul qilishga undash
5	Oila va ta’lim muassasasi hamkorligi	Ota-onalar ishtirokida bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik va mas’uliyatni tarbiyalash	Ota-onalar bilan uchrashuvlar, maslahatlar, hamkorlikdagi tadbirlar

Bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali samarali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-psixologik muhit – bolalarning erkin fikr bildirishi, tashabbus ko‘rsatishi va jamoadagi faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Pedagog bolalarning fikrlarini hurmat qilish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ijobiy emotsional muhit yaratish orqali liderlik sifatlarining namoyon bo‘lishiga sharoit yaratadi.

O‘yin faoliyatini maqsadli tashkil etish – rolli o‘yinlar, jamoaviy o‘yinlar va ijodiy o‘yinlar jarayonida bolalar yetakchilik qilish, qaror qabul qilish, vazifalarni taqsimlash va jamoani boshqarish ko‘nikmalarini egallaydilar. Pedagog bunday o‘yinlarda bolalarga turli rollarni berish orqali ularning liderlik qobiliyatlarini shakllantirishi mumkin.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish – guruhli mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar va hamkorlikdagi ijodiy faoliyat bolalarning muloqot madaniyatini, mas’uliyat hissini va boshqalarga ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday jarayonlarda bolalar bir-birini tinglash, fikr almashish va umumiy maqsadga erishishga o‘rganadilar. Pedagogning shaxsiy namunasi va rahbarlik uslubi pedagog bolalar bilan muloqotda adolatli, qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi pozitsiyani egallashi lozim. U bolalarni mustaqil qaror qabul qilishga undashi, ularning tashabbuslarini qadrlashi va ijobiy natijalarni e’tirof etishi orqali liderlik qobiliyatlarini shakllantirishi mumkin.

Oila va maktabgacha ta‘lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik – ota-onalarning bolalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas‘uliyatini qo‘llab-quvvatlashi liderlik sifatlarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois pedagoglar ota-onalar bilan muntazam muloqot o‘rnatib, bolalarda liderlik sifatlarini tarbiyalash bo‘yicha tavsiyalar berib borishlari maqsadga muvofiq. Ushbu pedagogik shart-sharoitlar bolalarning ijtimoiy faol, tashabbuskor va mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish pedagogik imkoniyatlari keng bo‘lib, ularning ijtimoiy, emotsional va aqliy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Pedagoglar bolalarda jamoa rahbari bo‘lish, o‘z qarorlarini qabul qilish, boshqalar bilan ishlash va mas’uliyatni his qilishga qaratilgan faoliyatlar bilan shug‘ullanishlari lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar mavjud. Jumladan, o‘yin faoliyati, guruhli mashg‘ulotlar, ijodiy topshiriqlar va hamkorlikka asoslangan faoliyat turlari bolalarda tashabbuskorlik, mustaqillik va mas’uliyat kabi liderlik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagog tomonidan yaratilgan qulay tarbiyaviy muhit, bolalarning fikrini qo‘llab-quvvatlash va ularni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish liderlik qobiliyatlarining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishga hamda ularning kelgusida jamoada lider sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa. Yuqoridagi tushunchalar asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish individual-tipologik xususiyatlar, motivatsion omillar va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi hamda pedagogik shart-sharoitlar orqali maqsadli ravishda boshqarilishi mumkinligi ilmiy jihatdan asosli tahlil etildi.

Adabiyotlar:

1. Azizxoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Fan, 2006.

2. Adifanova S.A. Liderlik va shaxsiy boshqaruv qobiliyatlari. - T., 2023.

3. Ahmedova N.B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarni boshqarish // Tadqiqotlar. - T., 2025. - №1 (55). - B.45-47.

4. G‘oziyev E. Liderlik qobiliyatlarini shakllantirish: pedagogik va psixologik jihatlar. - T.: Oliy ta’lim nashriyoti, 2010.

5. Safayev N. Liderlik qobiliyatlarini shakllantirish: pedagogik va psixologik asoslar. - T.: Oliy ta’lim nashriyoti, 2012.

образования в начальной школе и его роль в подготовке учителей.....181
Алиева Л.
Педагогические возможности формирования мультикультурных ценностей на уроках английского языка в начальных классах.....186
Jalilova H.T.
Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda xorijiy til bilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari.....191
Sharifov M.K.
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o'qitishda xorij tajribasi.....196
Abduraxmanova N.K.
Uzluksiz ta'lim sharoitida ta'lim muassasalari rahbarlarining raqamli savodxonligini bahoalsh va diagnostika qilish mezonlari.....201
Mashrapova S.T.
Maktabgacha ta'limda ta'lim sifati va pedagogik menejmentning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlari.....206
Мухаммадиева Ф., Джамилова Н.Н.
Дидактическое обеспечение по использованию квест-игр для формирования навыков сотрудничества у детей 6-7 лет.....211
Tojiboyeva S.X.
Biologiya fanini o'qitishda Abu Ali ibn Sino ta'limotlarining pedagogik va ilmiy-metodik xususiyatlari.....216
Otabayeva O.N.
Janubiy Koreya va Yaponiyada kasbiy tayyorlashda dual ta'lim tajribasi.....220
Murotaliyev J.R.
Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida shaxslararo munosabat va ta'sir etish metodlari.....225
Maxkamova Z.T.
Kasbiy ta'lim jarayonida raqamli baholash vositalarini tanlash mezonlari.....231
Yusupova X.K.
Intellektual kompetentlikni shakllantirishda kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlar munosabati....236
Хусейнова У.У.
Педагогические особенности развития профессиональных компетенций у будущих учителей.....242
Isroilov U.B.
Umumta'lim maktablari uchun o'rgatuvchi integrativ dasturiy ta'minot modelining samaradorligi va qiyosiy tahlili.....247
Tadjiyev D.D.
Qishloq maktab o'quvchilarida ta'limiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari.....253
Axrorova S.S.
Zamonaviy ta'limdagi metodik yondashuv va o'zlikni anglash.....257
Хужахонова (Содикова) М.Т.
Уровень психологического благополучия индийских студентов-медиков в условиях обучения за рубежом.....261
Ro'ziyeva G.A.
Maktabgacha ta'lim muassasasi direktorlarida boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....266
Fazilova M.R., Soliyeva A.I., Aripova G.Sh.
Kasb-hunar ta'limida dual ta'limni innovatsion metodlar bilan boyitish.....270
Raxmonova M.A.
Raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy ta'lim o'quvchilarini dizayn loyihalash faoliyatiga tayyorlash mexanizmlariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili.....273
Xo'janiyazova Sh.B.
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtiruvchi samarali omillar.....276
Калыбаева А.Е.
Современные проблемы воспитания толерантности и применение диалога культур в образовательно-воспитательном процессе в дошкольной образовательной организации (ДОО).....282
Jabbarova Z.O.
Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda ta'lim modernizatsiyalashning xalqaro va milliy tajribalari (STEM yondashuv asosida).....286
Тулаганов Д.Д.
Влияние использования генеративного искусственного интеллекта на обучаемость и оценку собственных результатов учащимися педагогических групп на примере малого эксперимента.....289
Shamatova B.
O'smirlar bilan ishlash jarayonida samarali ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish yo'llari.....294
Tashpo'latova B.O.
Mahalla – ma'rifat va tarbiya maskani.....298
Berdiyev A.P.
Abdulla Avloniy didaktik qarashlarining jadidchilik ta'limi rivojidagi ahamiyati.....301
Raxmatullayeva Ch.Sh.
O'quvchilarning qadriyatli yo'nalishlarini shakllantirishda aksiologik yondashuvga asoslangan baholashning pedagogik imkoniyatlari.....304
Aliqulova M.E., Sodiqova Sh.A.
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyati orqali rivojlanish markazlarini loyihalash.....309
Zufarova G.Sh., Sadikova Sh.A.
Maktabgacha 6-7 yoshli bolalarni kasbiy faoliyatga yo'naltirishda rivojlantiruvchi markazlar metodikasini takomillashtirishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o'rni.....313
Abduqahhorova D.I.
Ta'lim jarayonida o'qitish tizimida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati.....317
Kadirova N.M.
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari.....321
Додаева Г.Э., Морхова И.В.
Структурно-функциональная модель формирования ценностно-смысловой компетентности будущих учителей.....325
Косимова Ш.Б.
Влияние цифровых и традиционных средств обучения на снижение когнитивных барьеров у младших школьников при обучении английскому языку.....327

GUMANITAR VA IJTIMOIY FANLAR TA'LIMI

Нурманов А.Т., Шагаева А.Ю.
Методика интеграции ИИ-инструментов в уроки русского языка и литературы в Узбекистане: развитие критического мышления и повышение читательской грамотности.....329
Гулямова З.Р.
Когнитивно-прагматический анализ стилистических средств в юридическом дискурсе.....335
Raxmonova D.M.
Bolalar nutqiy faoliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar.....338
Мамедова Л.О.
Актуальные проблемы и перспективы развития двуязычия в современном обществе.....343
Raimova K.B.
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida psixolingvistik yondashuvlar asosida bilingvizm ko'nikmalarini rivojlantrish: nazariy tahlil va konseptual model.....345
Ahmadova M.Sh.
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda Alisher Navoiy asarlarining ta'sirini baholash.....347
Xudayberdiyeva M.
Milliy musiqa meros vositasida o'quvchilarning

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER NIZAMI
PEDAGOGICA
(scientific-theoretical and methodical journal)
№ 2

МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО
И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА им. НИЗАМИ
ПЕДАГОГИКА
(научно-теоретический и методический журнал)
№ 2

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Mas’ul kotib – R.M.Medetova
Muharrirlar – M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva
Sahifalovchi – S.Pirmatov
Nashr ko‘rsatkichlari:
Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077
Jurnal 2000-yildan boshlab chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.
2026-yil 26-mart bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.
Adadi – 80 nusxa. 30 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Bichimi 70x100$^{1}/_{16}$ “Roboto” garniturasi.
Nizomiy nomidagi O‘MPU “Tahrir va nash” bo‘limida bosildi.
100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.